

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 122 (1183), 2024-yil 21-iyun, juma



## MUHANDISLIK SOHALARIDA KADRLAR TAYYORLASH MASALALARINI HAL QILISH HAR QACHONGIDAN HAM MUHIM

### Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-iyun kuni poytaxtimizning Olmazor tumanidagi "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki faoliyati bilan tanishdi, muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishini o'tkazdi.

"Inno" innovatsion texnoparki uch yil oldin bunyod etilgan. Bu yerda sanoat sohalarini rivojlantirish uchun innovatsion g'oya va ixtirolar ishlab chiqiladi. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o'rgatish maqsadida oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Har yili 15 ming nafarga yaqin talaba va o'quvchilar ishtirokida seminar, amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Yurtimizda bunday innovatsion markazlar ko'payib bormoqda. Sanoat, energetika va axborot texnologiyalari rivojlanib, yangi-yangi majmualar ishga tushirilmoqda. Ular uchun zamonaviy bilim va malakaga ega muhandis va texniklar kerak.

Shu yerda Toshkent davlat texnika universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Toshkent davlat transport universiteti, Farg'ona politexnika instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzurida tashkil etilayotgan oliy muhandislik maktablari taqdimoti o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi qarorida bu borada qator vazifalar belgilangan. Xususan, qarorga muvofiq, muhandislik-texnika yo'nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruvi faoliyati takomillashtirilmoqda. Amaldagi o'quv dasturlarining zamonaviy texnologiyalar va ish beruvchilar talabiga muvofiqligi o'rganilib, tubdan o'zgartirilmoqda.

Davlatimiz rahbariga shular haqida ma'lumot berildi.

Dastlabki bosqichda 10 ta oliy ta'lim muassasasi huzurida oliy muhandislik

maktablari ochiladi. Maktabning kuzatuv kengashiga olimlar bilan birga hamkor korxonalar vakillari a'zo bo'ladi.

Ushbu maktablarda ikki yillik amaliy magistratura dasturlari yo'lga qo'yilib, ishlab chiqaruvchilar buyurtmasi asosida nomzodlar saralab olinadi. Birinchi yil talabalar korxonalar buyurtmasi asosida yangi mahsulotlarni loyihalashtiradi, ilmiy izlanishlar o'tkazadi, bu borada chuqurlashgan modul dasturlar asosida o'qitiladi. Ikkinchi yil yangi mahsulotlar bo'yicha tajriba-konstruktorlik namunalarni yaratish bilan bog'liq texnologik jarayonlarni korxonalarda sinovdan o'tkazadi.

Prezident oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy izlanishlarning hayotiyligi va samaradorligiga ahamiyat berdi. Ta'lim tizimiga qaralayotgan e'tibor ilm-fan yutuqlarida o'z ifodasini topishi kerakligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari olimlarning ixtirolargi, ilg'or ishlanmalar bilan ham tanishdi. Jumladan, energiya tejamon uskunalar, yuklama ortishi sabab transformatorlar portlashidan himoyalovchi sovitish tizimi, neft-gaz sohasida muhim bo'lgan kimyoviy reagentlar, bunyodkorlik, yo'lsozlikdagi zamonaviy yondashuvlar, suv inshootlari uchun muhandislik loyihalari, axborot texnologiyalariga oid zamonaviy ixtirolar haqida ma'lumot berildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Dunyoda raqobat kuchaygan bugungi zamonda mamlakatimiz ichki resurslarga

tayanib, industrial rivojlanish yo'lidan bormoqda. Yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilib, 150 ming atrofidagi ish o'rnini yaratilyapti.

Joriy yilda davlat investitsiya dasturlari asosida 21 trillion so'mlik loyihalar amalga oshiriladi. Shuningdek, bu yil 37,5 milliard dollarlik xorijiy va hududiy investitsiya loyihalari nazarda tutilgan.

Shunga munosabati ravishda davlat tomonidan ilm, ta'lim va innovatsiyaga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, o'tgan to'rt yilda 1 ming 727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihalarga 2,2 trillion so'm yo'naltirilgan. Tadqiqot, tajriba-konstruktorlik uchun xarajatlar 2 barobar o'sgan.

Leikin bu boradagi natijalar, yuqori malakali muhandislar hali yetarli emas. Oliy o'quv yurtlari bilan sanoat o'rtasida uzilish bor.

Shu bois yig'ilishga texnika yo'nalishidagi muassasalar rektorlari ham taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari avvalo sohadagi muammolarga o'xtalib o'tdi.

Yurtimizda texnika yo'nalishidagi 36 ta davlat oliyog'ida yiliga 67 ming bitiruvchi chiqadi. Ammo ulardagi dastur va mutaxassisliklar ishlab chiqaruvchilar talabiga mos emas. Oqibatda muhandislarining 60 foizi o'zi o'qigan yo'nalishda ishlamayapti.

Oliy ta'lim muassasalari fundamental tadqiqotlar o'tkazish bilan cheklangan, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kam. Muhandislik yo'nalishida yuzlab startap va innovatsion loyihalar "qog'oz"da qolib ketyapti.

Xorijiy universitetlarda "tanarx muhandisligi" "qiyoslash muhandisligi", "qayta muhandislik" kabi ixtisosliklar bor. Bizdagi

texnika oliygohlarida bu yo'lga qo'yilmagan. Oqibatda mahalliy sanoat tarmoqlari katta mablag' sarflab, ishchilarini xorijda o'qitishga yoki chetdan mutaxassis olib kelishga majbur.

Oxirgi yetti yilda oliy ta'lim qamrovi 5 barobar oshgan bo'lsa-da, yoshlarning muhandislik-texnikaga qiziqishi juda past. Universitet va ilmiy laboratoriyalarining ayrim uskunalar eskirgan. Ko'p professor-o'qituvchilar amaliyotdan uzilib qolgan. Rektorlar korxonalariga borib, yangi texnologiyalar bilan tanishmaydi, uskuna va dastgohlarni o'riganmaydi.

So'nggi to'rt yilda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot uchun tuzgan shartnomalari 3 karra ko'paygan. Ulardan daromad 6 karra oshgan. Leikin ilmiy ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish juda past. Ixtirolarni patentlashda ham hamma birdek emas.

Prezidentimiz sohani rivojlantirish uchun yangi tashabbuslarni ma'lum qildi.

Endi texnika yo'nalishida o'qitish va ilmiy-tadqiqot jarayonlari ilg'or tajriba asosida to'liq o'zgaradi. 36 ta oliy o'quv yurti va ularning filiallari bosqichma-bosqich yiriklashib, jami 20 ta oliygoh qoladi. Ular dual ta'lim tizimiga to'liq o'tadi.

Mehnat bozorida talab yo'q mutaxassisliklar qisqaradi. Ayrim kafedralar bir-lashtiriladi. Dekanatlarning talabalarga xizmat ko'rsatish funksiyalari to'liq raqamlashadi. Xorijdagi kabi "Registrator ofisi" tashkil qilinadi.

Har bir oliygoh Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Ko-

reja, Singapur kabi rivojlangan davlatlar nufuzli texnika universitetlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

"Tarmoq — korxonalar — oliygoh" zanjiri asosida, har bir oliygohga sanoat hamkori belgilab beriladi.

Barcha muhandislik oliygohlari hamkor korxonalarida kafedralar ochadi va dual ta'limni yo'lga qo'yadi. Bunda, korxonalar kafedralarni jihozlash, o'qituvchi va talabalarni rag'batlantirishga mablag' ajratadi. Talabalar amaliyoti va bitiruv kursidagi ta'limi to'liq hamkor korxonalarda tashkil qilinadi.

Vazirlik va korxonalar tizimida 32 ta tarmoq kengashlari tashkil qilinadi. Ular institutlar bilan texnika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi va buyurtmachi bo'ladi.

Shuningdek, birinchi bosqichda 10 ta oliyog'ida "Oliy muhandislik maktablari" ochiladi. Ularda ikki yillik amaliy magistratura dasturlari yo'lga qo'yilib, ishlab chiqaruvchilar buyurtmasi asosida nomzodlar saralab olinadi. Korxonalar "Oliy muhandislik maktabi"da laboratoriya ochish va jihozlashni moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Davlat ham byudjetdan mablag' ajratadi.

Endi oliy ta'lim muassasalarining tajriba ishlab chiqarish korxonalari maqomi qonun bilan mustahkamlanadi. Ularga IT-park rezidentlariga qo'llanilayotgan imtiyozlar beriladi. Sho'ba korxonasi ishtirokida kamida 60 foizi doktorant va talabalardan iborat bo'ladi.

Kelasi yildan texnika yo'nalishidagi loyihalarga davlat grantlari 4 karra oshiriladi.

Korxonaga oliygoh bilan hamkor tashkilot ham ta'sischi bo'lishiga ruxsat beriladi.

Viloyat hokimlari va tarmoq rahbari ilmiy va ishlab chiqarish loyihalari uchun oliygohlarga 10 milliard so'mgacha buyurtmani to'g'ridan-to'g'ri berishi mumkin bo'ladi.

Investitsiya loyihalari qiymatining kamida yarim foizini ilmiy ishlarga ajratish tizimi joriy qilinadi.

Muhandislik yo'nalishlari bo'yicha "eng yaxshi g'oya", "eng yaxshi loyiha" va "eng yaxshi ixtiro" respublika tanlovi o'tkaziladi. Unda o'qituvchilar, talabalar va amaliyotchi muhandislar ishtirok etishi mumkin bo'ladi. Birinchi o'ringa elektromobil beriladi.

Shuningdek, g'oya, loyiha va ixtiro muallifi bo'lgan eng zo'r 10 nafar ishtirokchi Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarga stajirovkaga yuboriladi.

Yig'ilish ochiq muloqot tarzida davom etdi. Tarmoq rahbarlari, olimlar, rektorlar va muhandislar sohada ilm-fan va ta'limni rivojlantirish bo'yicha fikrlarini aytdi.

Ular amaliyotchi alohida farmon loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur. Har bir vazir, tarmoq rahbari, rektor va professor-o'qituvchi mas'uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bunga albatta erishamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ziyodulla JANIBEKOV, Ikrom AVVALBOYEV, O'ZA muxbirlari

## YANGI ZAMON MUHANDISLARINI TAYYORLASH SANOAT TARMOQLARI UCHUN ZARURATGA AYLANMOQDA

### Munosabat

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparkida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, bu yo'nalishda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.



Davlatimiz rahbari bugungi murakkab vaziyatda barcha davlatlar ichki resurslariga tayanib, innovatsiyaga intilayotgani, mamlakatimizda ham keyingi yillarda ilm, ta'lim va innovatsiyaga e'tibor tubdan o'zgartirishni, istiqbolli loyihalar, tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari uchun yirik mablag'lar ajratilayotganini qayd etib, sohadagi muammo va yechimlarga o'xtalib o'tdi.

Shu bilan birga, bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, ya'ni oliygohlar fundamental tadqiqotlar o'tkazish bilan cheklangan, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kamligi, muhandislik yo'nalishida yuzlab startap va innovatsion loyihalar amalga oshmay qolib ketayotgani ham ko'rsatib o'tildi. Oliyog' bilan sanoat o'rtasida uzilish borligi, rektorlar korxonalariga borib, yangi texnologiyalar

bilan tanishmayotgani, uskuna va dastgohlarni o'rganmayotgani, hokim va vazirler esa o'rtada ko'prik bo'lib, buni tashkillashtirmayotgani asosiy sabablardan ekani ta'kidlandi.

Prezidentimiz texnika yo'nalishidagi muammolarga ham e'tibor qaratib, bu borada ham yechimini kutayotgan muammolar borligi, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish kerakligini bildirdi.

Hozirda yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilib, ularda 150 ming atrofidagi ish o'rnini yaratilmoqda. Uning 35 mingtasi texnika yo'nalishidagi ish o'rinlaridir. Shu bilan birga, texnika oliygohlarida yo'nalish va mutaxassisliklar ishlab chiqaruvchilar talablariga mos emasligi va muhandislarining 60 foizi o'zi o'qigan yo'nalishda ishlamayotgani, aniq mutaxassisga shuncha ehtiyoj bo'la turib, tarmoqlar rektorlari bilan hamkorlik o'rnatmagani, oliygohlarga buyurtma bermayotgani tezkor yechim topish va yondashishni taqozo etadi, albatta.

Keyingi yillarda oliy ta'lim qamrovi 5 barobar, ya'ni 9 foizdan 42

foizga oshgan bir paytda yoshlarning muhandislik-texnikaga qiziqishi juda pastligi, 2023-yil so'rovnomasida atigi 8 foiz maktab bitiruvchisi shu sohani tanlagani achinarli holdir. Qolaversa, professor-o'qituvchilar amaliyotdan uzilib qolgan, muhandislik bo'yicha professor-o'qituvchilarning 40 foizi so'nggi 5 yilda malaka oshirmagani, ba'zi universitetlarning ilmiy laboratoriyalaridagi uskunalar eskirgani aytib o'tildi.


Shuningdek, "tarmoq — korxonalar — oliygoh" zanjiri asosida har bir oliygohga sanoat hamkori belgilab berilishi, barcha muhandislik oliygohlari hamkor korxonalarida kafedralarni ochishi va dual ta'limni yo'lga qo'yishi, talabalarining amaliyoti va bitiruv kursidagi ta'limi to'liq hamkor korxonalarida tashkil qilinishi va boshqa muhim yo'nalishlar belgilab berilgani, nafaqat tarmoq va muassasa o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, balki ishlarimizning samaradorligini ham oshirishi tabiiy.

Davomi 2-beta

### Sarhisob

## ISHBILARMONLIK TAFAKKURI OZIG'I

### Tadbirkorlar bilan o'tgan yilgi uchrashuvda ko'tarilgan masalalar amaliyotga qanchalik tatbiq etildi?



Mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarini ahamiyati yoki qiymati nuqtayi nazaridan bir-biri bilan aslo qiyoslab bo'lmaydi. Zotan, har bir soha va yo'nalishdagi tarkibiy ishlohtlar munosib turmush sharoiti yaratish, taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqish, umuman, yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Rennessans poydevorini yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Agar ana shunday shartli zarurat yuzaga keladigan bo'lsa, "avval iqtisodiyot" tamoyili va ushbu yo'nalishdagi ishlar ko'lamidan kelib chiqib, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'rilyotgan choralarini eng ahamiyatli, desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, tadbirkorlik rivoji, avvalo, iqtisodiyot barqarorligi, o'z navbatida, barcha yo'nalishdagi ishlohtlar samaradorligida moliyaviy dastak vazifasini o'tashi bilan ustuvorlikka ega.

Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish, tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan,

biznes yuritishni yangilash, ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, litsenziyalash jarayonini soddalashtirish, xususiy mulk huquqi daxsizligini ta'minlash bo'yicha tizimli choralarni ko'rdi. Tadbirkorlik faoliyati kafolati bilan bog'liq huquqlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yildi.

Biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talab etiladigan tartibotlar soni 3 tagacha, sarf qilinadigan vaqt esa 5,5 kundan 3 kungacha qisqardi. Ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar 3,2 foizdan 2,2 foizgacha kamaydi.

Davomi 3-beta



Munosabat

YANGI ZAMON MUHANDISLARINI TAYYORLASH SANOAT TARMOQLARI UCHUN ZARURATGA AYLANMOQDA



Quvondiq SANAQULOV, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ boshqaruvi raisi — bosh direktori

yuqori cho'qqilarga olib chiqish, yutuqlarni hayotga tatbiq etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalashni talab etmoqda. Raqobat kuchayib borayotgan bugungi zamonada mamlakat taraqqiyotini ilm-fan yutuqlarisiz hamda ulami ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli tatbiq etishiz tasavvur qilish qiyin.

Davlatning qo'llab-quvvatlashi bilan ilm-fan rivojlanadi. Shu bois, respublikamiz ta'lim sohasi, ilmiy jamoatchiligi uchun barcha huquqiy asoslar, keng sharoit va imtiyozlar yaratib berilmoqdaki, bu imkoniyatlar yurt taraqqiyoti, sohalar rivojiga munosib xizmat qilmoqda. Natijada fan, ta'lim, innovatsiya uyg'unlashib, jadal taraqqiy etmoqda.

Keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni va boshqa hujjatlar sohaga qaratilgan yuksak e'tibor namunasi bo'ldi. Bu huquqiy hujjat oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, olimlar, yosh tadqiqotchilar uchun izlanishlar olib borish, intellektual va ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarishida mustahkam zamin yaratdi.

Pirovardida, fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash yo'lidagi natijalar ko'lami kengayib, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yaratilayotgan kashfiyot va ixtirolar, ishlanma va takliflar yurt taraqqiyoti, sohalar rivojini ta'minlamoqda. Olim va mutaxassislarimizning ilmiy va innovatsion integratsiyasiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayoniga ilm-fan yutuqlari, raqamlashtirish va innovatsion yechimlarga asoslangan texnologiyalarni keng jalb qilish mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlab, tannarxini kamaytiradi.

Bugun mamlakatimiz sanoatining bayroqdori bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, 105 ta innovatsion loyiha o'z ichiga olgan "2026-yilgacha Navoiy kon-metallurgiya kombinatini innovatsion rivojlantirish dasturi" amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturga kiritilgan 41 ta yo'nalish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda kombinat respublikaning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent davlat texnika universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Milliy texnologik tadqiqotlar universitetining Olmalik filiali, O'zbekiston Fanlar akademiyasi va uning huzuridagi Yadro fizikasi, Fizika-texnika va Mikrobiologiya institutlari, boshqa muassasalar shular jumlasidandir.

Misol uchun, ayni paytda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan qiymati 24,4 milliard so'mlik 30 ta innovatsion loyiha, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan qiymati 18,7 milliard so'mlik 24 ta xo'jalik shartnomasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyoda tabiiy boyliklar va resurslar zaxirasi cheklangan hamda yildan yilga kamayib, taqchillashib boryapti. Bu esa o'z-o'zidan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, insoniyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yaqin kelajakda jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi tabiiy. Bunday xavf-xatarlar barcha davlatlar qatorida, O'zbekistonni ham cheplab o'tayotgani yo'q. Bunga qarshi davlatimiz rahbari boshchiligidagi fan, ta'lim, innovatsiya va ularning integratsiyasiga alohida e'tibor berish orqali ko'rilayotgan choralar, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish sohalarini inqirozdan saqlab kelyapti. Quyida ularning ba'zi birlariga to'xtalib o'tishni joiz, deb bilaman.

Ulardan biri — butun dunyoni tashvishlantirayotgan suv muammasi. Shu bois, kombinat ma'muriyati bu masalaga jiddiy qarab, uning yechimiga ilmiy jihatdan yondashmoqda. Ya'ni suv resurslaridan samarali foydalanish ilmiy tadqiqot ishlarining

eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Buning uchun "2022-2026-yillarda suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishni yanada takomillashtirish dasturi" qabul qilinib, unda 78 ta innovatsion loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Buni ta'limga amalga oshirish kelgusida ishlab chiqarishdagi aylanma va oqova suvlarni qayta ishlatishtirish hamda yuqori minerallashtirilgan suvlarning ulushini oshirish orqali tabiiy suv hazzalaridan



olinayotgan 25,3 million kubometr suv resurslari tejash va o'z navbatida 91,4 milliard so'm mablag'ni iqtisod qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda yer osti suvlari tozalash qurilmasi yaratilib, iste'molga yaroqli bo'lgan ichimlik suv ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani muhim yangiliklardan biri bo'ldi. Bunday ishlarda, hech shubhasiz, qariyb 50 ming kishilik ulkan jamoa safida davr bilan hamqadam faoliyat olib borayotgan fan doktorlari, fan nomzodlari, yosh tadqiqotchilar, ixtirochi va ratsionalizatorlarning munosib hissasi bor, albatta.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, kombinat olim va mutaxassislari bu bilan to'xtab qolgan yo'l. Izlanishlar, yangi dasturlar yaratish ustida ish olib bormoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatini innovatsion rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan dastur loyihasi ishlab chiqarayotgani euzu tashabbuslardan biridir.

Albatta, bu ishlarni amalga oshirish uchun har bir korxonada o'zining kadrlar tayyorlash maktabi, ularga kasb sirklarini o'rgatish bo'yicha yetarli moddiy-texnik bazaga ega bo'lishi kerak. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bugun shunday keng sharoitlar mavjud. Korxonaning yosh,

intiluvchan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda, nazariy va amaliy bilim ko'nikmalariga ega kadrlar tayyorlash bo'yicha Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan yo'lga qo'yilgan mustahkam hamkorlik o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Masalan, Navoiy mashinasozlik zavodi hududida universitet texnoparki tashkil etilgani talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot

to'liq imkoniyat yaratilib, ulami amaliyot davrida ish o'rni bilan ta'minlash va o'ylik ish haqi to'lash yo'lga qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda, universitet bitiruvchilariga amaliyot o'tgan korxonalarida ishga joylashish imkoniyati yaratilgan. Birgina, joriy 2024-yilda ushbu oliygohni tamomlayotgan 588 talabang 442 nafarini kombinat bo'linmalariga ishga qabul qilish rejalashtirilgan.

Hamkorlikda amalga oshirilgan tashabbuslarimizdan yana biri, bu — Navoiy mashinasozlik zavodida "Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish" kafedrasini tashkil etildi. Kafedrada mahalliyashtirish bo'yicha o'qitiladigan fanlarning amaliy mashg'ulotlari hamda mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda universitet tomonidan Navoiy mashinasozlik zavodida import mahsulotlarni mahalliyashtirish bo'yicha 2 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Loyiha yakuni bilan 1,1 million dollarlik valyuta mablag'lari tejilishi kutilmoqda.

Ilmiy tadqiqot ishlari samarasini oshirish, zamon talablariga javob beradigan ustuvor ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini rivojlantirish, olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish maqsadida, kombinat homiylik mablag'lari hisobidan 13 milliard so'm bo'lgan analitik asbob-uskunalar, ya'ni zamonaviy skanerlovchi elektron mikroskop qurilmasi sotib olindi. Mazkur zamonaviy uskunalar yordamida nafaqat Navoiy viloyati sanoat korxonalarini, balki respublika hamda xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan korxonalar muammolarini ilmiy jihatdan hal qilish imkoniyati yaratildi. Bunda, universitet olimlari, magistratlari va ishlab chiqarish korxonalarini mutaxassislari tomonidan murakkab tarkibli rudalarni qayta ishlash, texnologik jarayonlarni samaradorligini oshirish bo'yicha aniq ilmiy-tahliliy sinovlar amalga oshirildi.

Xalqaro amaliyotdagi ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish uchun Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetidagi mavjud laboratoriyalar bazasida akkreditatsiyadan o'tgan ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish rejalashtirilgan. Ilmiy-tadqiqot markazi tog'kon, kimyo sanoati, energetika, ekologiya sohasidagi muammolarni o'rganib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tejamkor texnologiyalarni yaratish, zamonaviy raqamlashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy markazda bir dona namunani xalqaro standartlarga asoslanib qilingan bitta tahlil uchun 500 dollardan 5000 dollargacha pullik xizmat ko'rsatilib, yiliga 100 ming dollar daromad topsa bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion g'oyalarga ega, bilimlil, ilgama chanoq va intellektual kadrlarni tayyorlash, inson kapitalini rivojlantirish — yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashning asosiy, hal qiluvchi bo'g'ini bo'lib qoladi.

Hamkorlik



Muxtor UMAROV, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi Narxlar statistikasi boshqarmasi boshlig'i

O'zbekiston Jahon banki tomonidan yuritiladigan muhim xalqaro statistik tadbir — Xalqaro taqqoslash dasturida ilk bor rasman ishtirok etdi. Yaqinda uning natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra, O'zbekistonning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha 2021-yilgi yalpi ichki mahsulot hajmi 285 milliard AQSH dollarini, aholi jon boshiga esa 8162 dollarni tashkil qildi.

hisob-kitoblarda qo'llaniladigan asosiy statistik ko'rsatkichdir. U Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT, Yevropa Ittifoqi singari nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan muhim rasmiy qarorlarni qabul qilish jarayonida asqatadi.

Valyutalarning xarid qilish qobiliyati pariteti va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiy hamda amaliy jihatdan murakkab jarayon. Mahsulotlar va xizmatlar narxlari, ularning ishlab chiqarilishi hamda foydalanilishi to'g'risida katta hajmli ma'lumotlar yig'ilib, qayta ishlanadi. Odatda dasturda ko'zda tutilgan ishlarni to'liq bajarish uchun 3 yil vaqt talab etiladi va u "taqqoslashlar sikli" deb ataladi.

Bunday muhim xalqaro tadbirda O'zbekistonning rasmiy ishtiroki milliy statistika sohasining xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun muhim. Shu bois, mazkur yo'nalishda qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblab zamonaviy tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorida unda ishtirok etish belgilangan bo'lsa, Prezidentimizning 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy

statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Xalqaro taqqoslash dasturi global raundni doirasida barcha ishlarni umumiy muvofiqashtirish Jahon banki tomonidan amalga oshiriladi. Ishirokchi davlatlar quyidagi mintaqa guruhlari bo'ladi: Lotin Amerikasi, Osiyo, Tinch okeani mamlakatlari, G'arbiy Osiyo, Afrika, MDH, Yevropa Ittifoqi. Har bir mintaqa bo'yicha ishlar BMTning tegishli mintaqaviy komissiyasi yoki mintaqaviy taraqqiyot banki tomonidan muvofiqashtiriladi.

MDH Statistika qo'mitasi MDH mintaqasi uchun koordinator hisoblanadi. Shu bois, O'zbekistonning global dasturda ishtirok etishiga doir chora-tadbirlar MDH Statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Tayyorlagan jarayonida ma'lumotlarni shakllantirishga mas'ul mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

XALQARO TAQQOSLASH DASTURI

mamlakatlar rivojida salmoqli o'rin tutadi

O'zbekistonning "Xalqaro taqqoslash dasturi — 2021" global tadbiridagi ishtiroki doirasida Statistika agentligi tomonidan har chorakda 2500 dan ortiq turdagi tovar va xizmatlar narxlarini o'rganish bo'yicha kuzatuvlar o'tkazildi. To'plangan narx ma'lumotlari MDH Statistika qo'mitasiga xarid qobiliyati paritetini hisoblash uchun taqdim etib borildi.

Natijalarga ko'ra, O'zbekiston MDH davlatlari orasida xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblangan YIM ko'rsatkichi bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. Rossiya ushbu mintaqaga mamlakatlari orasida yetakchilik qilgan bo'lsa, Qozog'iston, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Tojikiston va Qirg'iziston keyingi o'rinlardan joy oldi.

O'zbekistonda aholi soni (2021-yil, o'rtacha 34,9 million kishi) ko'rsatkichi bilan 192 ta davlat orasida 41-pog'onani, YIM hajmi (Markaziy bankning o'rtacha almashinuv kursi bo'yicha 69,6 milliard AQSH dollari) ko'rsatkichi bilan 76-o'rinni, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan YIM hajmi bo'yicha (285 milliard AQSH dollari) 61-o'rinni, xarid qobiliyati pariteti bo'rsatkichi bo'yicha 9-o'rinni, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan aholi jon boshiga YIM hajmi (8162,2 AQSH dollari) ko'rsatkichi bo'yicha 136-o'rinni egalladi.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bo'yicha jami YIMdagi ulushi 0,2 foizni tashkil qilib, ro'yxatda 61-o'rinni band etdi.



Xalqaro taqqoslash dasturi natijalaridan xalqaro tashkilotlar, davlatlar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari va ekspertlar keng foydalanadi. Xarid qobiliyati pariteti va valyuta kurslari o'rnatidagi taqqoslashlar to'g'risidagi ma'lumotlar valyuta kurslarini tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan markaziy banklar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Taqqoslash natijalari xalqaro tashkilotlar tomonidan jahon va mintaqaviy iqtisodiyotni tahlil qilish hamda iqtisodiy prognozlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar mamlakatlarga iqtisodiy ko'mak va kreditlar ajratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston jahon miqyosidagi ushbu yirik loyihada faol qatnashib, tajriba orttirishda davom etadi. Xususan, 2023-yil noyabr oyida Toshkent shahrida Xalqaro taqqoslash dasturi doirasida MDH mintaqasida 2024-yil uchun xalqaro taqqoslashlarning navbatdagi bosqichiga tayyorlanish bo'yicha muhim tadbir bo'lib o'tdi. Hozir bu bo'yicha ishlar boshlanib ketgan.

Statistika agentligi tomonidan Xalqaro taqqoslash dasturi 2024-yildagi raundida O'zbekistonning munosib ishtiroki yuzasidan Toshkent shahrida tanlab olingan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida barcha tovar hamda xizmatlar narxlarining statistik kuzatuvlari olib borilmoqda.



# ISHBILARMONLIK TAFAKKURI OZIG'I

Sarhisob

## Tadbirkorlar bilan o'tgan yilgi uchrashuvda ko'tarilgan masalalar amaliyotga qanchalik tatbiq etildi?



**Davron VAHOBOV,**  
Savdo-sanoat palatasi raisi

### Boshlanishi 1-betda

Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish uchun 37 turdagi litsenziya va 10 turdagi ruxsatonoma bekor qilindi. 16 ta litsenziya va 11 ta ruxsatonoma boshqa hujjatlar bilan birlashtirish orqali qisqartirildi. 31 ta litsenziya va ruxsatonoma olish o'miga xabardor etish tartibi yo'lga qo'yildi. Natijada tadbirkorlarning qariyb 350 milliard so'mlik xarajatlari tejaldi.

Soliq ma'muriyatchiligi soddalashtirilib, soliq yuki yengillashtirildi. Xususan, soliq turlari 13 tadan 9 taga, soliq tekshiruvlari esa 13 tadan 2 taga qisqartirildi.

Ochig'i, bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish, iqtisodiy samarasi haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin hozir bularga alohida to'xtalmoqchi emas. Chunki tadbirkorlik rivoji bilan bog'liq erishilayotgan muvaffaqiyatlarni aksariyatimiz ko'rib, bilib turibmiz.

Gap ishbilarmonlik muhitini zamon talablarida yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish haqida borar ekan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotiga alohida to'xtalish joiz. Negaki, 2021-yil 20-avgustda ilk bor tashkil etilib, har yili Tadbirkorlar kuni arafasida o'tkazilishi an'anaga aylanib borayotgan mazkur uchrashuv tadbirkorlik rivoji bilan bog'liq ustuvor masalalarni muhokama qilish, bu yo'lda to'siq bo'layotgan muammolarni aniqlash va yechish, shu orqali qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilishiga asos bo'layotgani bilan ahamiyatlidir.

Bu yil Prezidentimizning tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti Qoraqalpog'istonda bo'lib o'tadi. Bu haqda davlatimiz rahbarining joriy yil 30-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash lozimki, navbatdagi uchrashuv avvalgilardan bir oz farqlanadi. Ya'ni Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti masalani joyiga chiqqan holda o'rganish va hal etish tizimiga hamohang tarzda ilk bor poytaxtimizdan tashqari o'tkaziladi. Ochiq muloqot doirasida tashkil etilishi kutilayotgan xalqaro biznes-forum esa qoraqalpog'istonlik tadbirkorlar uchun tajriba almashish, “Qoraqalpog'istonda biznes qiling” dasturi doirasida yirik xorijiy brendlarni jalb etishda yaxshi imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, ayni paytda mazkur uchrashuv va uning doirasida tashkil etiladigan tadbirlarga puxta hozirlik ko'rilmoqda.

Shu o'rinda davlatimiz rahbarining 2023-yil 4-sentabrdagi o'tgan yilgi uchrashuv natijalari, xususan, unda tadbirkorlar ko'tarayotgan muammolari, ilgari surilgan taklif va tashabbuslar ro'yogiga qaratilgan “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi qay darajada ta'minlangani ko'pchilik uchun qiziq, albatta.

2023-yilgi ochiq muloqot arafasida tadbirkorlardan 6 mingga yaqin murojat kelib

tushdi. Ularda ko'tarilgan asosiy masalalar kredit va moliyaviy yordamni kengaytirish (jami murojaatlarning 26 foizi), biznesni joy va infratuzilma bilan ta'minlash (21 foiz), soliq tizimini soddalashtirish (10 foiz), tekshirishlar va ortiqcha byurokratiyani keskin qisqartirish (8 foiz) bilan bog'liq edi.

Shu bois, Prezidentimizning 2023-yil 4-sentabrdagi qarorida 5 ta — kichik biznesga yangi imkoniyatlar yaratish, o'rta biznesni barqaror iqtisodiy o'sish garoviga aylantirish, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulot bilan kirish, yuqori daromadli korxonalarni ko'paytirish, soddaliq ma'muriyatchiligi va byurokratiyasiz qulay muhitni rag'batlantirish yo'nalishi belgilandi. Qaror bilan ushbu yo'nalishlar bo'yicha 42 banddan iborat “yo'li xaritasi” tasdiqlanib, unga asosan, 11 ta qonun, Prezidentimizning bitta farmoni va 15 ta qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 10 ta qarori hamda 10 dan ortiq amaliy chora-tadbirlar rejasini, shaharsozlik normalari va qoidalarini qabul qilinishi ko'zda tutildi.

Shu yilning 1-iyun holatiga ko'ra, qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 23 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, ularda belgilangan vazifalar doirasida tadbirkorlik faoliyatini yanada qulay sharoit yaratilmoqda. Jumladan, tadbirkorlar e'tiroziga sabab bo'lgan soliq tizimidagi “tax-gap” bekor qilindi, 2024-yil 31-dekabr qadar ip-kalavani eksport qilishda undiriladigan yig'imning amaldagi miqdori 5 barobar kamaytiriladigan bo'ldi.

Endi qaror ijrosi doirasida qabul qilingan ayrim hujjatlarining muhim jihatlari to'xtalib o'tsak. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan 2023-yil 1-oktabrdan boshlab “Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish boshlandi.

Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanna mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga (yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada) 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratish yoki asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish belgilandi.

Konsultativ qo'llab-quvvatlash yo'nalishida esa litsenziya, ruxsatonoma va sertifikatli olish masalalari, bojxona va soliq ma'muriyatchiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmilashtrish, bundan tashqari, davlat xaridlarida ishtirok etish, yer uchastkalari va bino-inshootlarni sotib olish yoki ijaraga olish hamda loyihalashtirish, shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, yengillik va imkoniyatlar bo'yicha ma'lumot va maslahatlar berish yo'lga qo'yildi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar 3 yildan 4 yilgacha, 6 oydan 1 yilgacha imtiyozli davr bilan (yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada) ajratiladigan bo'ldi.

Natijada shu oy avvaliga qadar biznes platforma orqali 211 mingdan ortiq ariza kelib tushdi. Ular asosida 23 ming 300 ga yaqin tadbirkorga tijorat banklari tomonidan 2 trillion 107 milliard so'mdan ortiq kredit ajratildi.

2023-yil 11-oktabrdagi “Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda esa ushbu yo'nalishda investitsiya loyihalari uchun yer ajratish tizimini soddalashtirish va kichik sanoat zonalarini faoliyatini takomillashtirishga doir vazifalar belgilandi.

Xususan, Toshkent viloyati Ohangaron tumanida tashkil etilgan charm-poyabzal kichik sanoat zonasida markazlashgan oqova suv tozalash inshootini qurish uchun respublika

budgetidan 10 yil muddatga 50 milliard so'mgacha ssuda ajratiladigan bo'ldi.

Prezidentimizning 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi negizida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tashkil etildi. Kompaniyaga tadbirkorlik rivoji bilan bog'liq katta vazifalar yuklatildi. Xususan, kompaniya tomonidan 2024-yil 1-martdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga bir qator qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etilishi belgilandi.

O'rta tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish loyihalariga:

— loyiha qiymatining 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foizi yoki 3 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda tashabbuskorning ustav kapitaliga ko'chmas mulk obyektlari, asbob-uskunarlar va boshqa ko'rinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritish;

— ko'chmas mulk va asbob-uskunarlar 70 foizi, biroq 10 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda mulk sotib olish va yetti yilgacha muddatga qarzidorlik qoldig'iga Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada yillik foiz hisoblash yoki bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan xizmatlar ipotekasi asosida tashabbuskorlarga berish.

O'rta tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish loyihalarini amalga oshirish uchun kompaniyaga o'n yil muddatga besh yillik imtiyozli davr bilan 1,2 trillion so'm, shu jumladan, 2024-yil 1-iyulga qadar 600 milliard so'm hamda 2024-yil yakunigacha 600 milliard so'm miqdorida foizsiz byudjet ssudasi ajratish belgilangan.

Ulush kiritish va xizmatlar ipotekasi shaklida moliyaviy yordamlar kompaniya tomonidan 24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan hamda bir yil davomida kamida 50 kishini doimiy ish bilan ta'minlagan o'rta tadbirkorlik subyektlari orasida o'tkaziladigan ochiq tanlov orqali aniqlanadigan loyihalarga taqdim etiladi. Kompaniya o'zi tomonidan o'rta tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ulushdor kompaniya kiritilgan ulushni yetti yil davomida bozor qiymatida loyiha tashabbuskori yoki boshqa salohiyatli investorlarga realizatsiya qiladi.

“Yaxshi” va “a'lo” kredit tarixiga ega tadbirkorlik subyektlariga, ular avval olgan kreditlari bo'yicha kafillik yordamidan foydalanayotgan bo'lishidan qat'i nazar, qo'shimcha ajratiladigan kreditlar uchun belgilangan umumiy miqdorlar doirasida kafillik taqdim etiladi.

Kompaniya tomonidan kompensatsiya “1+2” tamoyili asosida avval kredit (lizing) ning dastlabki yiliga taqdim etiladi, keyingi ikki

hamda loyihalarda 120 milliard so'm miqdorida ulushdor sifatida ishtirok etiladi.

Soha rivoji, xususan, yurtdoshlarimizni tadbirkorlikka keng jalb etishda Prezidentimizning 2023-yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Boisi, qaror bilan aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari hamda 2024-2026-yillar uchun “Biznesni rivojlantirish banki” ATB va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ faoliyatining asosiy maqsadi ko'rsatkichlari belgilab berildi.

Bunda aholi va tadbirkorlik subyektlarini o'qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish, “oilaviy tadbirkor — mikrobiznes — kichik biznes — o'rta biznes” zanjiri asosida ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig'ini 1,7 barobar oshirish orqali kredit portfelidagi ulushini 28 foizdan 43 foizga yetkazish, kichik

BUGUNGI KUNDA  
76 MING (13 FOIZ)  
KORXONANING REYTING DARAJASI “B” VA UNDA YUQORI. 2023-YILDA 25,1 MINGTA (33 FOIZ) KORXONAGA 23,3 TRILLION SO'M SOLIQ, 3 MINGTASIGA (12 FOIZ) 10,1 TRILLION SO'M BOJXONA IMTIYOZI TAQDIM ETILDI.

hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror bilan esa hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish orqali biznesga ma'muriy yukni kamaytirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Xususan, 2024-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlaridan talab qilinadigan, o'zaro bir-birini takrorlovchi va davlat organlarining boshqa organlardan olish imkoniyati mavjud

**Tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarga moliyaviy yordam taqdim etish uchun 2023-yilda 1161 tadbirkorga 362 milliard so'm moliyaviy yordam ko'rsatilgan.** Eng ko'p qo'llab-quvvatlangan tadbirkorlar soni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (193 nafar), Xorazm (155 nafar), Buxoro (140 nafar) va Jizzax (131 nafar) viloyatlari yetakchilik qildi.

**Prezidentimizning 2024-yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan esa tadbirkorlar faoliyatini reyting baholash tizimi joriy etilib, ular 4 toifaga ajratildi — yuqori (“AAA”, “AA” va “A” toifalar), o'rta (“BBB”, “BB” va “B” toifalar), qoniqarli (“SSS”, “CC” va “C” toifalar) va quyi (“D” toifa).**

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari loyihalariga:

— kredit (lizing) ajratish uchun tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlariga milliy va xorijiy valyutada moliyaviy resurslarni joylashtirish;

— tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik berish;

— kompaniya mablag'laridan foydalanish bo'yicha tijorat banklari bilan tuziladigan vositachilik shartnomalariga asosan belgilangan limit hamda umumiy miqdor va shartlar doirasida kreditlar bo'yicha kafillik (portfel kafilligi) taqdim etish;

— 2024-2026-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlariga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 barobaridan oshmagan stavkada, milliy valyutada 5 milliard so'mgacha ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha miqdorda uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga kompensatsiya qo'llash.

Yil davomida tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratiladigan yangi ish o'rinlari rejasini bajarilishi va realizatsiya qilingan mahsulot (xizmat) bo'yicha tushum kamida o'n besh foiz oshgan taqdirda davom ettiriladi.

Tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarga moliyaviy yordam taqdim etish uchun 2023-yilda 1161 tadbirkorga 362 milliard so'm moliyaviy yordam ko'rsatilgan. Eng ko'p qo'llab-quvvatlangan tadbirkorlar soni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (193 nafar), Xorazm (155 nafar), Buxoro (140 nafar) va Jizzax (131 nafar) viloyatlari yetakchilik qildi.

2023-yilda, shuningdek, 14 ming 309 tadbirkorning 688 milliard so'mlik (2018-yildan boshlab 3,1 trillion so'm) foiz xarajatlarning kompensatsiya to'lovlarini amalga oshirildi.

Joriy yilda ham kompaniya tomonidan ushbu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilmoqda. Xususan, ushbu yilda tadbirkorlarning 2,6 mingta loyihasi uchun 1,6 trillion so'm miqdorida yordam taqdim etilishi prognoz qilingan. Bunda 600 milliard so'm kafillik, 468 milliard so'm xizmatlar ipotekasi, 300 milliard so'm moliyaviy resurs, 150 milliard so'm kompensatsiya yordamlari taqdim etiladi



biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollarigacha miqdorda resurslar jalb qilish, 300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (yevrobondlarni) xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish, 150 mingta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yo'lga qo'yish va kengaytirish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Prezidentimizning 2024-yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan esa tadbirkorlar faoliyatini reyting baholash tizimi joriy etilib, ular 4 toifaga ajratildi — yuqori (“AAA”, “AA” va “A” toifalar), o'rta (“BBB”, “BB” va “B” toifalar), qoniqarli (“CCC”, “CC” va “C” toifalar) va quyi (“D” toifa).

Bugungi kunda 76 ming (13 foiz) korxonaning reyting darajasi “V” va undan yuqori. 2023-yilda 25,1 mingta (33 foiz) korxonaga 23,3 trillion so'm soliq, 3 mingtasiga (12 foiz) 10,1 trillion so'm bojxona imtiyozlari taqdim etildi.

Prezidentimizning 2023-yil 18-dekabrda “Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi qarori bilan sanoat tarmoqlarini tubdan rivojlantirish maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaga 1 milliard dollar ekvivalenti miqdorida mablag' jalb qilinishi, shu jumladan, 2023-2024-yillarda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 200 million dollar ekvivalenti miqdoridagi mablag' ajratilishi belgilandi.

2024-yil 9-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga

bo'lgan 8 ta hisobot va statistika ma'lumotlari turli bekor qilinib, ularning yagona ro'yxati tasdiqlandi.

2024-yil 9-yanvardagi “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, 2024-yil 1-martdan litsenziyalanadigan faoliyat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar 22 turi bekor qilindi. Shuningdek, ushbu sanadan boshlab litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga qo'llanilgan jarima miqdorigin 50 foizi 15 kun, 70 foizi 30 kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langanda, jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod etiladigan bo'ldi.

2024-yil 1-martdan 2025-yil 1-yanvargacha huquqiy eksperiment tariqasida rentgen uskunasi foydalanish va veterinar laboratoriya-diaagnostika ishlarini amalga oshirish faoliyatini boshlash uchun uch oygacha o'tish va moslashish davrini belgilaydigan “Biznesga litsenziyasiz kirish” maxsus rejimi joriy etildi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti va unda muhokama qilingan masalalar bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi mamlakatimizda biznes muhitini yaxshilash, yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, aholi uchun muqim va yuqori daromadli ish o'rinlari yaratishga xizmat qilmogda. Asosiysi, davlatimiz rahbarining ishbilarmon doira vakillari bilan shaxsan o'zi muloqot qilayotgan jamiyatimiz ishbilarmonlik tafakkurini eng zarur oziq — ishonch, qat'iyat, tashabbuskorlik bilan to'yintirmogda.



«Mutolaa»ning e'tirof etishga arzigulik yana bir jihati borki, bu hammaga birdek manzur bo'lishi aniq. «Kitob-kino» ruksidagi yangicha yondashuv tashkil etildi. Ya'ni kitoblarning mazmunini buzmaganda unga film ishlash yo'lga qo'yildi. Misol uchun, Javlon Jovliyevning «Qo'rqma» asari asosida 30 daqiqali hujjatli badiiy film suratga olindi va tomoshabin e'tiboriga havola etildi. Film ko'pchilikka iliq taassurot qoldirdi.

### Yuksalish pallasi



Risolat MADIYEVA, «Yangi O'zbekiston» muxbiri

# Fikrat olamiga KITOB ORQALI YO'L

Ilm olishga rag'bat — har bir millatning kelajagini belgilovchi asosiy mezonlardan biri. Bunday rag'batning eng samaralisi ham, eng foydalisi ham, albatta, kitobdir! Bugun jamiyatimizda kitobxonlikka, ayniqsa, yoshlarning mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Kitobxonlar uchun sifatli va badiiy jihatdan pishiq, tafakkurni boyitadigan va aqlni peshlaydigan kitoblar nashr etish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni omallashtirish kun tartibidagi masalalardan biriga aylangan.



«Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti — kitob va kutubxonalarda», degan edi Prezidentimiz bu haqda. Kasbnng yetuk mutaxassisi bo'lish, soha sirilarini mukammal o'rganish va ilm-fanning zamonaviy, so'nggi yutuqlaridan boxabar bo'lishda, ayniqsa, ilmiy adabiyotlarning o'rni beqiyos. Dunyo miqosidagi yetuk olimlar, ziyolilar muallifligidagi bunday adabiyotlar intellektual salohiyat va imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, bilim va zehni yanada charxlashda azaldan muhim o'rin tutib kelgan. Tafakkuri, fikr doirasi keng insonlar har qanday jamiyatning chinakam boyligidir. Zero, rivojlanishning asosida ilm, ilmnng asosida esa kitobxon xalq turadi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-noyabrdagi «Yoshlar uchun ming kitob» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorida jahonda mashhur bo'lgan kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilish hamda shu orqali ularni zamonaviy ilm-fanning so'nggi yutuqlari bilan yaqindan tanishtirib berish vazifasi belgilangan. Ushbu maqsadlar uchun 20 milliard so'm ajratildi va loyiha doirasida har yili 50 tadan kitob tarjima qilish Yoshlar ishlari agentligiga yuklatildi.

Ayni paytda xorijiy tillardagi eng sara ilmiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etish loyihasi ishga tushirilgan. Loyiha doirasida 2024-yilda 50 nomdagi kitobni o'zbek tiliga o'girish va nashr etish rejalashtirilgan.

Kitoblar tarjimasida boshlab yuborildi. Bu yilgi birinchi bosqichda ko'proq iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va tabiiy fanlarga doir ilmiy adabiyotlar tarjima qilinadi. «Yoshlar uchun ming kitob» loyihasi doirasidagi asarlarning barchasi o'z sohasida atoqli olimlar tomonidan yozilgan.

### Bu loyihaga qanday ehtiyoj bor edi?

Shu paytgacha badiiy adabiyot tarjimasini ustuvor bo'lib keldi. Ilmiy-ommabop kitoblar yillar davomida bir oz nazardan chetda qoldi. Bugun bu bo'shliqni to'ldirishga bo'lgan ehtiyoj ushbu loyiha yuzaga kelishiga turki bo'ldi. Loyiha qaysidir tarjimonning ixtiyori bilangina amalga oshmaydi. Bunga ijodkor, olim, mutaxassislarni safarbar etish orqali erishish mumkin.

«Yoshlar uchun ming kitob» — «Ibrat farzandlari», «Vikistpendiya», «Duel» kabi loyihalardan kam bo'lmagan, strategik natijani, millat manfaatini, ertasi ko'zlagan loyiha.

Dunyo tamadduniga xizmat qilgan asarlarni o'rganish, o'zlashtirish, tadqiq etish yo'llaridan biri ularning boxabarlikidir. Bu kitoblar dunyo tafakkuriga kirib borish uchun katta yo'l. Deylik, tarixiy manzaralar, bugungi iqtisodiy jarayonlar haqida xolis so'zlovchi asarlarni ekspertlar ishtirokida tanlab olib, tarjima qilishga kirishilgani yoshlar kamoliga qaratilgan yana bir e'tibor demakdir. Ilmiy-ommabop, yoshlar uchun qulay, ularga ilm-fan darchalarini ochib beradigan qo'llanmalar kelgusida o'zbek yigiti-qizlari tomonidan bemisil kashfiyotlar, yangiliklar yaratilishiga turki bo'lishi shubhasiz.

Loyiha keng qamrovli. Bunda imkon qadar barcha yo'nalishdagi kitoblarni tarjima qilish nazarda tutilgan.

### Har yili ellikta kitob chop etiladi

— Bu kitoblardan foydalanish huquqi asar mualliflaridan sotib olinmoqda, — deydi loyiha rahbari Mehriyoz Abbosova. — Xorijdagi nashriyotlar bilan hamkorlik qilishda qiyinchiliklarga ham duch keldik. Ular bizga xayrixohlik bildirsada-da, asarlarni shunchaki berishni istamasligi tabiiy. Mualliflik huquqlarini so'rash, loyihaning maqsad, vazifalarini tushuntirish ishlari olib borildi.

Hozir hayotimizga sun'iy intellekt kirib kelmoqda. «Mutolaa» loyihasining har bir bosqichida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu ish tezligini oshiribgina qolmay, sifatini va ko'lamini ham ancha yaxshilaydi.

Olimlar, adiblar, noshirlarga chiqilib, har bitta kitobdan foydalanish huquqi sotib olinayapti.

Tarjima uchun kitoblarni tanlashda dolzarbligi, yoshlar intellektual va ilmiy salohiyatini oshirishdagi ahamiyati, muallif shaxsining xalqaro maydonda tutgan o'rni, kitobni chop etgan nashriyot mavqei, kitob haqida mutaxassislar munosabati o'rnanib chiqilmoqda. Ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot va boshqa



sohlarda tajribali va yetakchi olimlardan iborat tarkibda tuzilgan ekspertlar kengashi ana shu mezonlar asosida kitoblar ro'yxatini shakllantirmoqda.

Loyihaning boshlang'ich bosqichlarida muqaddima kitoblar, qo'llanmalar, darsliklar, umuman, sohani tanishtiradigan kitoblar tarjima qilinishi nazarda tutilgan. Bunda ayrim umumiy mezonlarga amal qilinadi.

Masalan, xarajati qoplanmagani uchun xususiy nashriyotlar chop etmaydigan, ammo jamiyat uchun zarur kitoblar bor. Ana o'shalarga e'tibor qaratilayapti.

Kitoblar tili va ifodasi sodda, nomutaxassis bo'lsa ham o'quvchilar tushunadigan bo'lishi shart. Kitob tili soddaroq bo'lsa-da, ilmiy asosi bo'lishi, soha bo'yicha yetakchi mutaxassislar tomonidan yozilganiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ular nafaqat bilim berishi, ayni paytda mustaqil va tanqidiy fikrlay olish malakasini shakllantirishga xizmat qilishi ustuvor maqsad bo'lib qolmoqda.

Loyiha doirasida chop etilgan kitoblar ekspertlar kengashi tavsiyasiga ko'ra, axborot-kutubxona muassasalarini, jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruv organi kutubxonalarga yetkaziladi.

Maqsad o'zbek yoshlarini dunyo ilm-fani bilan ona tilimizda tanishtirish. Ko'p guvohi bo'lamiz, institutlarda o'zbek tilida ilmiy qo'llanmalar juda kam. Bori

ham o'qituvchilarning monografiyalari, maqolalaridan iborat. «Yoshlar uchun ming kitob» loyihasi doirasida chop etilayotgan adabiyotlar universitet talabalari uchun yaxshi darslik bo'ladi. Hozir ilmiy adabiyotga e'tibor qaratilayapti. Keyingi bosqichlarda badiiy asarlarni tarjima qilish ko'zda tutilgan. Bu yoshlarga yangicha tafakkur, yangicha dunyoqarash imkonini beradi.

Tarjima qilingan va chop etishga tayyorlangan kitoblarga doir huquqlar Yoshlar ishlari agentligi tasarrufida qoldiriladi hamda nashriyotlar ushbu kitoblarni kelgusida o'z mablag'lari hisobidan chop etishi va sotishi mumkin. Shuningdek, elektron nusxalari kitobxonlar keng foydalanishi uchun mualliflik huquqi egasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Milliy kutubxonasiga va Fanlar akademiyasi tizimidagi kutubxonalariga beg'araz taqdim etiladi.

### «Mutolaa» — katta kitobxonlik maydoni

XXI asrga kelib, yoshlarni kitobga jalb etish qiyin masalaga aylanib borayotgani sir emas. Atrofimizni turli gadjetlar o'rab olayotgani, chalg'ituvchi narsalar tobora ko'payib ketayotgani kitobxonlik darajamizga ham putur yetkazmay qolmayapti. Shunday vaziyatda butun mamlakat yoshlarini kitobga qiziqitiradigan, qamrab oladigan, qulayligi va o'zgalchiligi bilan ajralib turadigan kattagina platformaga ehtiyoj seziladi. Ana shunday

kitobxonlik maydoni yaratildi va kutilgan natijaga erisha boshladi. Bu Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan «Mutolaa» loyihasidir.

Loyihani tashkillashtirish va rivojlantirishda kundalik hayotimizda eng ko'p ishmi tushadigan qo'limizdagi gadjetlardan samarali foydalanilgan. Ya'ni loyiha ilova shaklida bo'lib, qurilmaga yuklab olindi va doimiy hamrohimizga aylanadi. Hozirgi kunda ilovani 550 mingdan ortiq kishi yuklab olgan. Bu ko'rsatkich kundan kunga ortib bormoqda.

Bir million kitobxonning kitob o'qishiga imkoniyat yaratish, o'zbek adabiyotini xorijga eksport qilish, bolalar adabiyoti bozorini yaratish loyihadan ko'zda tutilgan asosiy maqsadidir.

Loyiha bugungi kunda yoshlar ko'p qimmatli vaqtini telefonda o'tkazib, kitoblardan uzoqlashgani, kitoblar adadi yoshlar soniga nisbatan sezilarli ravishda kamligi, kutubxonalar yetishmasligi, elektron kitoblarning tarqoqligi va sifatisizligi, o'qishli audiokitob yaratish tizimi yo'qligi va kitobxonlikka zamonaviy yondashilmay kelinayotgani, bolalar adabiyoti inqirozi kabi muammolarga chiroyli yechim izlaydi.

— O'zbek va jahon adabiyotining sara namunalarni bir ilovaga jamlash, taniqli suxandon va dublyaj ustalari yordamida asarlarni audiolashtirish, bolalarga oid asarlarni yoshga qarab ajratish, «kitob-kino» kabi yo'nalishlardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlik targ'ibotini keng yo'yish orqali aynan shu muammolarga yechim

topiladi, — deydi loyiha rahbari, Edinburg universiteti magistr Sirojiddin Olimov.

Hozirgacha ilovaga 500 dan ortiq audio va 1500 elektron kitob joylashtirildi. Zamon talabiga mos audiokitoblar katta e'tibor qaratilayapti. Boir Xolmirzayev, Dildora Rustamova, Nargiza Mirzayeva, Elbek Mirzohidov, Muhammadali Abdugunduzov, Mahmud Ismoilov, Behzod Muhammadkarimov, Muslama Murodova kabi iste'dodli aktyorlar va suxandona kitoblarni audiolashtirayapti. Bu orqali kitobxonlar endi ko'chada, transportlarda, mehnat jarayonlarida ham ilm-ma'rifatdan bahramand bo'lishi va har daqiqasini mazmunli o'tkazishi ta'minlanadi.

Loyihada bolalar adabiyotiga ham alohida urg'u beriladi. Bu yo'nalish bo'yicha yaxshi asarlarimiz, tan olish kerak, barmoq bilan sanarli. Ushbu og'riqli nuqtamizga barham berish maqsadida «Mutolaa»da maxsus bolalar bo'limi tashkil etilgan. Bu bo'lmda bolalar tarbiyasi, dunyoqarashi, saviyasini rivojlantirish uchun nimaiki kerak bo'lsa, barchasi topiladi. Bundan tashqari, «Bolalar ijodkorlari maktabi»ni yaratish yo'lga qo'yildi. Maqsad loyiha doirasida yosh ijodkorlar jamoasini tashkil etish, ulug' ajdodlarimizning bolalikdagi siymolari aks etgan kitoblarni ko'paytirish va zamonaviy-milliy qahramonlarni yaratishdir.

«Mutolaa»ning e'tirof etishga arzigulik yana bir jihati borki, bu hammaga birdek manzur bo'lishi aniq. «Kitob-kino» ruksidagi yangicha yondashuv tashkil etildi. Ya'ni kitoblarning mazmunini buzmaganda unga film ishlash yo'lga qo'yildi. Misol uchun, Javlon Jovliyevning «Qo'rqma» asari asosida 30 daqiqali hujjatli badiiy film suratga olindi va tomoshabin e'tiboriga havola etildi. Film ko'pchilikka iliq taassurot qoldirdi.

Hozir hayotimizda sun'iy intellekt kirib kelmoqda. «Mutolaa» loyihasining har bir bosqichida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu ish tezligini oshiribgina qolmay, sifatini va ko'lamini ham ancha yaxshilaydi.

— Misol uchun, ilovaga yuklangan barcha kitob muqovalari sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan, — deydi Sirojiddin Olimov. — Kitoblarni Pdf shaklidan Epubga o'tkazishda, tahrirlashda ham uning xizmati katta. Bundan tashqari, kitoblarni audiolashtirishda ovozni klonlashtirish integratsiyasi ham ancha takomillashtirildi. Bu nima degani? Endi siz bir asarni turli ovozlarda, eng hayratlanarlis, marhum ijodkorlar ovozida ham tinglash imkoniga ega bo'lasiz. Bu jarayonda, albatta, ovozlarning mualliflik huquqiga alohida e'tibor qaratiladi.

\*\*\*  
Har qanday davlatning, mamlakatning, xalqning yagona najoti ilm. Shunday ekan, ilm uchun yagona vosita kitob va kitobxonlikdir. Hamisha shunday bo'lib qoladi. Yuqorida tilga olingan ikki loyiha fikrat olamiga eltuvchi eng yaxshi yo'l bo'ladi va siz kitobxonga eng yaxshilarini ilinadi.

### Tajriba

Orol dengizining qurigan tubida qariyb 600 ming gektarda tajriba tariqasida noyob o'simlik — arundo donaks ekilmoqda. Ushbu amaliyot Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashabbusi hamda O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti professori Zinovit Novitskiy boshchiligidan olib borilmoqda.

— Orol dengizi tubidagi qurigan yer maydoni 6 million gektarni tashkil etadi. Ushbu hududdan yiliga 150 million tonna tuzli chang-to'zon havoga ko'tarilib, minglab kilometracha uchib boradi. Natijada mintaqada kuchli ekologik inqiroz yuzaga kelmoqda, — deydi qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik Zinovit Novitskiy. — Albatta, ushbu muammoga yechim topish maqsadida bir necha yillardan buyon timsiz mehnat qilinmoqda. Har yili Orol dengizi qurigan tubida 100 ming gektar «yashil qoplamalar» yaratilmoqda. Joriy yil qish-bahor mavsumida mazkur



hududda jami 112 ming 502 gektar maydonda o'rmon melioratsiya ishlari bajarildi. Shundan 109 ming 443 gektarda urug'dan, 3059 gektarda ko'chadan o'rmonzorlar barpo etildi. Shu bilan birga, bu yerlarga arundo donaks o'simligini ekishni boshladik. Hozir o'simliklar 1 oylik. Ular qurg'oqchilikka chidamli bo'lgani bois,

og'ir cho'l sharoitida ham 4 metr gacha o'sa oladi. Uning ekish texnologiyasi noyobligi shundaki, ekish jarayonida ko'chatlar o'rminga ildiz kurtaklari o'tqaziladi. Ushbu o'simlik tuzli shamollarning oldini oladi,

po'lasidan qurilish va to'qimachilikda keng foydalaniladi. Shuningdek, uni yem-xashak sifatida ham ishlatish mumkin. Arundo donaks ko'p yillik qamish bo'lib, uni gigant qamish, karrizo, arundo, ispan

qamishi, Kolorado daryosi qamishi, yovvoyi qamish deb ham atashadi. Ushbu o'simlik namli, tuzli, botqoqli, cho'l va qo'riq joylarda o'sadi. Arundo donaks odatda 6 metrgacha o'sadi. Poyalari diametri 2-3 santimetr. Kulrang-yashil, qilichimon barglari navbatma-navbat joylashgan. Uzunligi 30-60 santimetr gacha,

eni 2-6 santimetr. Umuman olganda, o'simlik oddiy qamishga o'xshaydi. Ekilgandan so'ng tuproqqa 1 metrgacha chuqur kirib boradigan tugunli yer osti talarlari orqali vegetativ ravishda ko'payadi. Uzunligi 5 santimetrdan kam bo'lgan poya va ildizpoyaning bo'laklari bitta tugunga ega bo'lib, turli sharoitlarda oson unib chiqishi mumkin.

Yozi quruq, qishi esa yumshoq bo'lgan mo'tadil iqlimli hududlarda mart oyi atrofida ulkan qamishning yangi kurtaklari paydo bo'ladi. Iyun va iyul oylarida tez o'sib, poya va barglar hosil qiladi. Iyul oyining oxiridan pastki barglar mavsumiylikka qarab qurib boshlaydi. Qurish kuzda tezlashadi. Oktabr oyi boshidan noyabr oyi oxirigacha gullaydi. Ushbu fenologik bosqichda namlik miqdori sezilarli darajada pasayadi. Qishda past haroratlarda ulkan qamish o'sishni to'xtatadi. Qayta o'sish bahorda sodir bo'ladi. Gigant qamish Markaziy Yevropada bir yillik o'simlik sifatida ma'lum.

— Agar tanlangan yerlarda o'simlik tomir o'tib, tutib ketsa, loyihani davom ettirmoqchimiz, — deydi Zinovit Novitskiy. — Bugungi kungacha dengiz tubida 1 million 830 ming gektar joyda saksosul, qandim, cherkes kabi cho'lga chidamli o'simliklar ekildi. Endi ular o'smaydigan juda sho'rlangan yerlarga arundo donaks ekib, tajribadan o'tkazaypmiz.

Shukuh



Furqat JO'RAQULOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari

Uzoqqa bormaylik. Ilgari xonadonlarda kunora tandir-tandir non yopilgan. Sirtidan qaragan odam shuncha nonni kim yeydi, deyihi mumkin. Biroq momolarimiz, onalarimiz yopgan non sochiq yoki dasturxonga o'ralib, qishloqning u chekkasidan bu chekkasigacha tarqatilgan. Tansiq taom qilinsa, albatta, bemorlar, yakka-yolg'izlar, o'zgalar parvarishiga muhtojlarga ulashilgan.

Shu o'rinda farzandlaridan birining Abdulla Qodiriy haqidagi bir xotirasini eslaylik. Bir o'g'li adibdan velosiped olib berishni iltimos qiladi. Shunda yozuvchi mahallada hammaning ham velosiped olishga qurbi yetmaydi, senga olib bersak, boshqalarning ko'ngli o'ksib qolishi mumkin, deydi.

Ha, ko'ngil uchun o'lmok kerak! O'zganing dilini o'g'li yo'qan inson hajja ketishi o'ldidan kechirim so'rab borishi bejiz zarurat hisoblanmaydi. Hajj amaliy ma'naviy asosida o'ta-bobolarimiz, momolarimizdan qolgan eng go'zal urf odat va qadriyatlar yetibdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Uymizga mehmon kelsa, qo'shni taom ko'tarib, mehmonni yo'q'lab chiqadi. Sizning mehmoningiz — bizning mehmon, deydi. Bu gap zamirida mezbonning qo'ni-qo'shni, mahalla oldida obro'si borligi ham aks etadi. Muhammad Javhar Zamindor rivoyat qiladi: bir kishi dono odamning oldiga kelib: "Aytgich, men yaxshi odammanmi yoki yomon? Buni qanday bilsa bo'ladi?", deb so'rabdi. Oqil kishi bunday javob beribdi: "Qo'shnilaringdan so'ra, agar ular seni yaxshi, desa, demak, yaxshisan".

Bir ishini boshlashdan avval mahalla-ko'y nima deydi, deb o'ylashning o'z har birimizimiz hayotimiz mahalla bilan, insoniy fazilatlarimiz va qadriyatlarimiz bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbarining muqaddas haj ziyoratiga ketgan minglab yurtodoshlarimiz holidan xabar olishi ham ana shu go'zal qadriyatlarimizga borib taqaladi. Kundalik rejasiz davlat yumushlari bilan tug'ib bo'lgan davlatimiz rahbarining muqaddas haj amaliyi bajarib turgan yurtodoshlarimiz holiga barqaror emasligi insoniy fazilatlarimiz, g'amxo'rlikning yuksak amaliy namunasi.

Qani aytgich, qay birimiz minglab hojilarimizning ona Vatanimiz tinchligini...



Har bir ish chin ixlos va ishonch bilan qilingan niyatdan boshlanadi

Hajja borishni ko'pchilik orzu qiladi. Shuni istagan ko'ngilga ezgulik urug'i qadalladi. Ammo ziyoratga borish shartlari orasida shaxsning ma'naviy yetukligi alohida qayd etilgan. Xo'sh, ma'naviy yetuklik nimalarda aks etadi?

so'rab qilgan duolarida bir necha soniya bo'lsa-da eslanmadi? Qay birimiz duo bilan el ko'karishiga shubha qildik?! Haj safariga ketgunga qadar bir oilaning holidan xabar olgan kishi qaytib kelgach, bir necha oilaning holidan xabar olishga urinadi. Zero, bir insonning ko'nglini o'z qo'liga olib, birinchi nafaqa qilib, nafaqat biz, balki butun dunyo ahli lol qolayotir. Bunday kimo'zarligi xo'jako'rsin bizga qachon yuqub ulgurdi?

Ko'plab hojilarimiz ziyorat chog'ida xorijliklar tomonidan Imom Buxoriy avlodlari sifatida ehtirom etilganini eshitganmiz. Madaniyati, ilm-fandagi olamshumul kashfiyotlari bilan dunyo tamadduniga hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad Farg'oniy avlodi ekanimizdan faxrlanamiz. Xo'sh, bugun farzandimizga bitta kitob sotib olib berishga o'z rinsagu, xo'jako'rsinga doshoqozonda osh damlab, tarqatsak, kim degan odam bo'lami?.. Qo'shnimiz, mahalladashimizning farzandi oliy ma'lumot olish uchun shartnoma pulini to'lashga muhtoj bo'lib tursa-yu, biz hali dunyoni anglamagan chaqaloqni qimmat mashinada yetti mahallaga dong taratib tug'uruqxonadan olib chiqsak... Otasiz yoki onasiz qolgan bola ko'chada mayda-chuyda o'g'irlab voyaga yetayotgan bo'lsa-yu, uni ko'rib-ko'rmaganga, eshitib-eshitmaganga olsak...

Biz Imom Buxoriy avlodlarimiz. Biroq allomaning "Al-adab al-mufrad" hadislar to'plamini, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbeh ul-g'oflin"ini, Imom G'azzoliyning "Mukoshafat ul-qulub"ini, Ahmad Yung'akning "Hibat ul-haqoyiq"ini nega o'qimaymiz? Abu Nasr Forobiyning yuksak insoniy fazilatlar tarannumi etilgan "Fozil odamlar shahri"ni yoddan bilsak, Abu Rayhon Beruniy, Najmiddin Kubro, Muhammad Porso, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy

va boshqa mutafakkir allomalarimizning o'nlab asarlaridagi odob-axloqning go'zal namunalarini anglashimiz, xulqimizga,



hayotimizga ko'chirishimizdan, ularga o'xshab, el dardi, farzand tarbiyasi, ma'rifat ulashish baxti bilan yashasak, bizni kim to'xtatib qoladi? Birgina ma'rifatparvar bobomiz Is'hoqon Ibratni olaylik. U chet el hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishish istagida Jidda, Istanbul, Sofiya, Rim, Afg'oniston, Arabiston, Hindiston, Xitoy, Koshg'ar kabi mamlakatlar bo'ylab sayohat qilib, Namanganga qaytgach, otasidan qolgan katta yerni bog' qilib, favvora qurdiradi, daraxtlar ekib, xiyobon yaratadi. Yevropa ushbu hashamatli imorat qurdirib, lekin qaytib kelganidan so'ng xalqqa dasturxon yo'zib ham biron bir o'z mablag' kerak — deb qoldi bir tanishim. Eshitib, hayratimni yashiroldim. Shunda u "Hamma qilyaptiku", dedi.

Jamiyatda turfa inson bor. Haj ziyoratiga borishning mohiyatini anglamagan, hojilik maqomini tushumaganlar turli sa'y-harakatlarga bosh bo'lsa, qolganlarning ham ular ortidan ergashishi nechog'liq to'g'ri? Bugun yurtimizdagi islohotlarning asosiy negizi vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, xalqimizning davlatdan rozi

bo'smaxona tashkil qiladi. U yurt ziyolisiga xos umr kechiradi.

O'zga eldagi hoji ota-onalarimiz uchun shuncha sharoit yaratilgan nafaqa ularning duosini olish, balki ular haqida vatan qayg'u urayotganini anglatish hamdir. Ular ortida O'zbekiston turganini his etirish uchun qilingan sa'y-harakatdir. Bunday

bo'lib yashashiga erishish kabi ezgu amallar ro'yobiga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu islohotlar zamirida ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosi va shonli tariximizni chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishda tadqiqotlar qilish, muqaddas qadamjolarini asrab-avaylash, yoshlarimizning ilm olishi uchun munosib shart-sharoit yaratish orqali iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish, diniy-ma'rifiy sohada izchil islohotlar olib borib, xalqimizning bu boradagi orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishdek ezgu maqsadlar muajassam.

Kishilarning bir-biriga mehr-oqibati bo'lishi, kam ta'minlangan va alohida parvarishga muhtoj insonlar holidan xabar olishi, muruvvat ko'rsatishi, xayr-ehson qilishi qadriyatlarimizning o'zagini tashkil etadi. Binobarin, muqaddas dinimiz ham barchani shunga o'rgatadi va shu yo'lga boshlaydi. Bu esa xalqimizning azaliy umuminsoniy fazilatlaridan.

Bugun mahallada ishlash tizimini mutlaqo yangi mexanizm asosida tashkil etishga qaratilgan "mahalla yettligi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Yangi O'zbekiston mahalladan boshlanayotgan, xalq roziligi uchun barcha yuqori tashkilot mahallaga tushirilayotgan bir paytda hoyu havasga berilishimiz qaysi islohotga xayrixohligimizni ko'rsatadi. Xalqimiz orasida sayqal topgan bir gap bor: "qars ikki qo'ldan chiqadi". Bugun yurtning ziyolilari, hojilari — ma'rifatparvarlari mahalladagi shuncha sa'y-harakatga "labbay" deb javob bermas ekan, islohot mahalladan, har birimizning insoniy fazilatlarimizdan boshlanmas ekan, biz istagan porloq kelajakni o'z qo'lhimiz bilan ortga surgan, shuncha katta imkoniyatni boy bergan bo'lami.

Sohibqiron Amir Temur qanchalar taqvodor bo'lganini bilamiz. Uning zuriyoti Husayn Boyqaro haj safariga ketayotgan Alisher Navoiyni mamlakat ishlari tufayli to'xtatib qolgani haqida manbalarda keltirilgan. Navoiyning yo'l ta'mirlash, ko'priklar qurish, suv chiqarish, maktab va madrasalar qurdirish kabi ehsonlari haqida ham eshitganmiz. Bu buyuk insonning haj ziyoratiga borish vaqti va mablag'i bir elning tashvishini hal etishga, mamlakat podshosiga yelkadosh, hammaslak bo'lib, saltanat ishlari ko'maklashishga sarflangan bo'lsa, bu taqdir Navoiyning nomini asrlarga

muhrlab qo'yamadimi? Uning go'zal ma'naviy dunyosi hanuzgacha ziyo taratmayaptimi?

Ibrat olishimiz lozim bo'lgan tariximiz ham, ajdodlarimiz merosi ham bishyor. Faqat ma'rifat yo'lidan yurishimiz, oldimizga qo'rgan ulkan maqsadni amalga oshirishda salmoqli vazifalarni bajarishimiz zarurligini anglab yetishimiz darkor.

Har safar mashinaga yonilg'i quydirganimizda yo'l solig'i to'laymiz. Qonun bo'yicha ko'chalar mana shu pul hisobidan asfalt qilinishi ko'zda tutilgan. Biroq atrofimizdagi turli illatlarni bartaraf etish uchun ma'naviy ehtiyojni to'ldirish lozimligi haqida hech o'yab ko'rmamiz? Mashinaga yonilg'i quymasangiz, yurmaydi. Jamiyat ham shunday: fuqarolarni tarbiyalamas ekanmiz, ko'zlagan ma'nulimiga mashinani surgandek, surib ketishimizga to'g'ri keladi. Ammo bu bizni holdan toydirish turgan gap.

Har bir ish chin ixlos, ishonch bilan qilingan niyatdan boshlanadi. Biz yangi O'zbekistonni ma'rifatli jamiyat, inson qadri ulug'lanuvchi davlat sifatida barpo etishni maqsad qilganmiz. Uchinchi Renessans paydevori ziyolilar sa'y-harakati bilan mustahkamlanadi. Ma'rifatparvar bobolarimiz ta'kidlaganidek, tilda, fikrda, ishda birlik bo'lsa, yo'llarimiz ravon bo'lajak. Qayerda yoshi ulug' odam ko'rsak, qayerda ilm ahlini ko'rsak, duo so'raganmiz. Xolis niyat bilan so'rab qilgan duolarimiz ijobat bo'ladi.

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muhsiniy" asarida jamiyatning odob-axloq bilan ziyoratlashi uchun harakat qilish va insonlarning turli muammolariga dardkash bo'lib, o'zini ezgu ishlarida mas'uliyat his etish musulmon kishining maqsadi ekanini qayd etadi.

Zero, bugun chin musulmonligimiz yaxshi amallarimiz, xalqparvarligimiz, ma'rifatparvarligimiz bilan baholandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Kuchlilar — oqilgilar, savovatpeshalar — muhtojlarga yordamchi, yoshlar — qariyalarga g'amxo'r bo'lsin. Dinimizda belgilab berilgan to'g'ri yo'l odob va ishmaylik, ayni paytda zamon bilan hamnafas yashaylik. Yoshlarimiz bilimlari bilan jahonga tanilib, yurtimiz dovrug'ini yuksaklarga ko'tarishsin".

Insonning tanasidan avval ko'nglining hajja intilishi bejiz bo'lmas kerak. Muqaddas ziyoratga borish istagi ko'ngilga tushishi bilan inson chiroyli amallarga harakat qila boshlaydi.

Bugun har bir o'zbekistonlikning ko'ngil muqaddas ziyoratgohga intilsa, ko'ngillar odob bo'ladi, go'zal fazilatli insonlar safi kengayadi. Yangi O'zbekiston sizni bizzidan yurt tinchligi, mahallalarda osoyishtalik bo'lishi, farzandlarimiz kamoli yo'lida birlashishimizni, ezgu niyatlarimizni amalga oshirishda yakdil bo'lishimizni so'raydi.

Nuqtayi nazar



Muhayyo ISMOILOVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshkent shahri bo'limi rahbari

Hayit bayrami arafasida davlatimiz rahbarining Makkai mukarramad bo'lib turgan O'zbekiston musulmonlari idorasi

NATIJDORLIK, UZVIYLK VA SIFAT KAFOLATI

Yurtimizda Qurbon hayiti bu yil o'zgacha shukuh, o'zgacha ruhda nishonlandi. Keyingi yetti yilda 60 mingdan ziyod yurtodoshimiz haj amallarini bajardi. Hozir ham o'zbekistonlik 15 ming ziyoratchi muqaddas qadamjolarida ibodatlarini ado etib, yurtga qaytish taraddudida.

raisi, shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muvotiq bo'ldi.

Musulmon olamida azaldan hojilik ulug' maqom hisoblanib, bu maqom egalari o'z komilligi, sog'lom e'tiqodi, ma'naviyati, insoniyligi, ezgu amallari bilan, qolaversa, atrofdagilariga ham ushbu amallarni targ'ib etishi bilan boshqalarga namuna bo'lgan.

Qurbon hayiti munosabati bilan davlatimiz rahbarining O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida: "Umid qilamizki, hojilarimiz Vatanimizga qaytgach, jamiyatimizdagi mehroqibat muhitini yanada mustahkamlash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi hamda oilalar totuvligini kuchaytirishda ibrat va namuna ko'rsatadilar", deb yuksak ishonch bildirildi.

Global o'zgarishlar, g'oyaviy tahdidlar, tinchlik va osoyishtalikka bo'layotgan salbiy ta'sirlar kuchaygan ayni damda hojilarimiz oldiga qo'yilayotgan mas'uliyatli vazifalar juda muhimdir. Chaqiruv, o'z navbatida, haj ziyoratini ado etayotgan yurtodoshlarimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan qabul qilindi. O'zbekiston musulmonlari Prezidentimiz da'vatiga "labbay" deb, murojaat yo'lladilar. Unda hojilar yurtga qaytganimizdan keyin yangi O'zbekiston fidoyisi bo'lib, ma'naviyat targ'ibotchisiga aylanamiz, degan ezgu tashabbusni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdi. Jonajon xalqimizni bugungi murakkab zamonda birlashtirib, ona

Vatanimiz taraqqiyotiga xolis xizmat qilish, mahallamizda adashganlar bo'lmasligiga erishish kabi ulkan maqsadlar yo'lida shijoat ko'rsatishga so'z berildilar.

Shuningdek, hayit arafasida muftiy Nuriddin Xoliqnazarning ziyoratdagi yurtodoshlarimiz huzurida chiqish qilganiga guvoh bo'ldik. "Hojilik riyo uchun bo'lmagisi kerak. Hoji degani, bu, birinchidan, ibodatini bajardi, farzini bajardi, gunohlardan qutuldi, endi u namuna bo'ladi, degani. Shunday ekan, hoji akalar, hoji otalar, hozir uyingizga qo'ng'iroq qiling, bolangizga aytin: "Bolam, meni dabdaba bilan kutib olsang, rozi bo'lmayman. Biz

riyo uchun hoji bo'lmaymiz, Alloh uchun hoji bo'lamiz", deng. Qanchadan qancha faqirlar, kambag'allar bor yurtimizda. Ularining holidan xabar olaylik, hojilik maqomiga munosib ish tutaylik", deya muftiy O'zbekistonga qaytmasdanoq haqiqiy "ma'naviyat targ'ibotchi"si sifatida faoliyatini boshlab yubordi.

Darhaqiqat, kishilik jamiyati paydo bo'libdik, din odamlarni ezgulik, komillik va insonparvarlikka chorlab, zararli odatlar va boshqalarga ozor berish kabi yomon illatlardan ulozqatiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lgan. Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va axboriy kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabati shakllantirish, yon-atrofta yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissin oshirish, tinch-osoysista hayotimizga xavf tug'dirishi munim bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishda hojilarimiz "ma'naviyat targ'ibotchisi" sifatida safimizga shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan taklif qilinishi kelgusidagi ishlarimiz natijadorlik, uzviyligi hamda sifatini kafolatlaydi.